

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

O'ZBEK TILINING XORIJDA O'QITILISHI: TA'LIM NAZARIYASI VA AMALIYOTI

XALQARO ILMIY-AMALIY ONLAYN ANJUMAN MATERIALLARI

2024-yil 16-aprel

Toshkent – 2024

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 4-iyuldagi PQ-200 qarori ijrosini ta'minlash to'g'risi"dagi 2024-yil 18-yanvarda tasdiqlangan 16-sonli buyrug'iga 1-ilovasidagi 2024-yilda xalqaro miqyosida o'tkaziladigan ilmiy va ilmiy texnik tadbirlar rejasi asosida Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2024-yilning 16-aprelida "O'zbek tilining xorijda o'qitilishi: ta'lim nazariyasi va amaliyoti" Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn anjumani o'tkazildi.

Mazkur ilmiy maqolalar to'plamida Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlandi, maqolalarda o'zbek tilining xorijiy til sifatida o'qitishda qo'llanayotgan va foydalanish mumkin bo'lgan zamonaviy metodik yondashuvlar, axborot va pedagogik texnologiyalar yoritib berilgan. To'plamdan dunyo bo'yicha o'zbek tilidan dars beradigan taniqli olimlar, metodistlar, o'qituvchilar bilan bir qatorda ToshDO'TAU iqtidorli talabalarining maqolalari ham o'rin olgan.

To'plam til va adabiyot ta'limi bilan shug'ullanuvchi professor-o'qituvchilar, shu sohaning tadqiqotchilari, magistrant va talabalarga mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

G.Asilova – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

G.Norimova – filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Tahrir hay'ati:

S.Muhamedova, N.Musulmanova, X.Kadirova, O.Abduhakimova, Y.Shirinova,

O.Turakulova, D.Elova, G.Iskandarova, Y.Do'smurodova

Mazkur to'plam matni Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2024-yil 25-apreldagi 9-sonli majlisida muhokama qilinib, nashrga tavsiya qilingan.

Izoh: Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflar o'zlari mas'uldirlar.

O'ZBEK VA QORAQALPOQ TILLARIDA OZIQ-OVQAT MAVZUSIDAGI MAQOLLARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

Nargiza Aytniyazova¹

Annotatsiya. Mazkur maqolada lingvomadaniyatshunoslikning o'rganish obyekti bo'lgan maqollarga to'xtalangan. Oziq-ovqat nomlari ishtirok etgan o'zbek va qoraqalpoq maqollaridan namunalar keltirilib, lingvomadaniy aspektida qiyosiy tahlil etilgan.

Kalit so'zlar. *til, maqol, lingvokulturologiya, paremiologik, madaniyat, izohli lug'at.*

Annatation. This article focuses on proverbs, which are the object of study of linguistic and cultural studies. Samples of Uzbek and Karakalpak proverbs involving food names were given and compared in the linguistic and cultural aspect.

Key words. *language, proverb, linguoculturology, paremiology, culture, explanatory vocabulary.*

Tilning paremiologik, ya'ni maqol va matallar fondi har bir xalqning madaniyatini, ma'naviyatini, urf-odatlarini ko'rsatib beradigan javohirlar sandig'idir. Ma'lumki, maqol va matallar folklorshunoslikda janr matnlari sifatida keng o'rganilgan. Ammo biz maqol va matallarga lingvokulturologik aspektda yondashsak, uning tilshunoslikdagi xususiyatlarini ochib bergan bo'lamiz. Biroq har qanday maqol va matal ham lingvokulturologik tadqiqotlarning predmeti bo'lavermaydi. Bu o'rinda faqat muayyan xalq yoki etnosning tarixi, madaniyati, turmushi, ma'naviyati bilan chambarchas bog'liq bo'lgan maqol va matallar o'rganilishi lozim bo'ladi. Masalan, Andijonda mehmon kelgan xonadonga hurmat yuzasidan qo'shnilar dasturxon chiqazishadi. Shuningdek, o'zbek xonadonlarida qo'shnilar o'rtadagi devorning biror yeridan teshik ochib qo'yishadi. Bu teshik orqali bir-birlaridan hol-ahvol so'rashadi, tansiq ovqat qilganlarida biror idishda shu ovqatdan uzatishadi. "*Mehmon kelar eshikdan, rizqi kelar teshikdan*" [9:166] maqoli ana shu odatning ta'siri tufayli yuzaga kelgan.

Qoraqalpoq xalq og'zaki ijodida xuddi mana shu maqolning "*Qonaq kelse esikten, Írisqali kirer tesikten*" [5:130] shaklida qo'llanishini ko'rishimiz mumkin. Qoraqalpoq tilining izohli lug'atida "Írisqal" so'zining ma'nosi quyidagicha keltirilgan: *Írisqal (Írisqı) – adamnıń kúndelikli kún-kórisi úshin napaqa, nesiybe, dáwlet, baylıq* [6:583]. Demak, xonadonga kelgan mehmon o'z rizqi, nasibasi bilan

¹ Nargiza Aytniyazova – ToshDO'TAU tayanch doktoranti

Iqtibos uchun: Aytniyazova, N. (2024) O'zbek va qoraqalpoq tillarida oziq-ovqat mavzusidagi maqollarning lingvomadaniy xususiyatlari. // "O'zbek tilining xorijda o'qitilishi: ta'lim nazariyasi va amaliyoti" nomli xalqaro ilmiy-amaliy onlayn anjuman materiallari. 2024-yil 16-aprel. Toshkent – 2024. 66-69 b. DOI: 10.52773/tsuull.conf.2024.16.4/RFNE9134

keladi. Mehmonga uy to'ridan joy berish, dasturxon yozish, uni aziz insoni sifatida ko'rish milliy urf-odatlariga aylanib ketgan. Buning isboti sifatida qoraqalpoq folklorida *"Miyman kelse esikten, bále-qáde shígip keter tesikten"* degan ibratli gap ham keltiriladi.

O'zbek va qoraqalpoq xalqlari tarixi, tili, madaniyati, urf-odatlari azal-azaldan bir-biriga o'xshash va chambarchas bog'liq. Ular farzand tarbiyasida uning sabrli, qanoatli bo'lishi, o'zida bor narsalarga noshukur bo'lmasligi kabi xislatlarga ega bo'lishiga katta e'tibor berishgan. Ana shularni nasihat qilishgan, shu tarzda tilda quyidagi maqollar yuzaga kelgan:

"Och qornim, tinch qulog'im" [10:328] → *"Ash qarınım, tınısh qulağım"* [5:144];

"Oz oshim, g'avg'osiz boshim" [10:328] → *"Azğana asım, ğawğasız basım"* [5:144].

Bu maqollar bilan: "Hayotingda har qancha yetishmovchilik sezganing, qiynalganing taqdirda ham birovdan so'rama, tilanma. Oz bo'lsa ham, o'z mehnating, peshona tering bilan topilgan halol, beminnat narsangga qanoat qil. Aks holda biror balo-qazoga yo'liqishing mumkin", degan ma'noda nasihat qiladilar.

Qoraqalpoqcha *"Puli arzannıń sorpası tatımas, Eshek eti et bolmas, Sawdagerden dos bolmas"* [4:64] maqoli o'zbek tilida *"Arzonning sho'rvasi tatımas"* [9:228] maqoliga to'g'ri keladi. Ushbu ikki xalq maqolida ham biror narsani baholashda uning narxiga e'tibor berish kerakligi ta'kidlanadi. Arzon, oriqlar go'shtning sho'rvasi tatimsiz bo'ladi. Qadimdan ota-bobolar mol xarid qilganda eng yaxshi, nihoyatda sifatli olish, arzon ekan deb, yaroqsiz narsaga pul sarflamaslik lozimligini uqtirganlar. Chunki, qimmat narsa shak-shubhasiz har jihatdan yaxshi bo'ladi, bir qancha arzon narsaning o'rnini bosadi. Har ikki maqol mazmunan o'xshash, lekin qoraqalpoq xalq maqoli tuzilishi tomonidan to'liqroq, ya'ni batafsil keltirilgan. Xarid qilinayotgan narsa (et, go'sht)ning qanday ekanligi (mol go'shtimi yoki boshqa), shunga qarab baholanishi, u savdogar tomonidan sotilishi, savdogar moli sotilishi uchun uni maqtashi, aybini aytmashligi mumkinligi, ya'ni do'st bo'lmasligi kabi to'liq ta'riflar keltirilgan. Bu o'rinda ikkala xalq ham o'ziga xos va mos bo'lgan so'zdan foydalanadi. Ya'ni sho'rva taomining o'zbek va qoraqalpoq xalqlarida har xil turlari bor bo'lib, uni sevib iste'mol qilishgan, kasalliklarga davo uchun qo'llashgan. O'zbek tilining izohli lug'ati sho'rva so'zi fors tilidan olingan bo'lib, guruch, go'shtli suyuq ovqat; mastava, [7:700] deb izohlanadi. Qoraqalpoq tilining izohli lug'atida esa "go'shtning qaynatilgan suvi, suyuq ovqat" deyiladi. Buni *"Et – etga, sho'rva – betga"* [8:354], *"Et – etke, sorpa – betke"* [3:173] maqollarida ham ko'rishimiz mumkin. Ya'ni go'sht tanga darmon bo'lsa, sho'rvasi inson yuziga sog'lom jilo beradi.

O'zbek tilidagi *"Arpa-bug'doy osh bo'lar, oltin-kumush tosh bo'lar"* [9:228] maqoli qoraqalpoq tilidagi *"Arpa, biyday as eken, Altin, gúmis tas eken"* [4:12] maqoli bilan tuzilishi va mazmun jihatdan aynan bir xil. Bu maqollar qanday yuzaga kelgani haqida esa quyidagicha rivoyat qilinadi: "Bir savdogar boy

xurjunning bir yog'iga oltin, bir yog'iga kumush to'ldirib, shu boyligiga ishongan holda hech qanday oziq-ovqat olmay, safarga jo'nabdi. Uning yo'li kimsasiz cho'l-u biyobonga tushibdi. Zog' uchmaydigan bu yerlarda na suv bor-u, na ovqat. Haligi boy necha kun och-nahor yurib, nihoyatda holdan toyib, nima qilarini bilmay ketayotsa, qarshisidan bir gado chiqib qolibdi. Uning xaltasi to'la non ekan. Boyning ko'zi nonga tushib, suyunganidan sal bo'lmasa o'zidan ketayozibdi. U gadodan xurjundagi oltin-kumushlarga nonini ayirbosh qilishini so'rabdi. Gado darhol rozi bo'libdi. Oy unga oltin-kumushlarini berib, nonga to'yib, darmonga kirib, yana yo'liga ravona bo'libdi. Gado esa xurjunni yelkasiga tashlab, bir kun yuribdi, ikki kun yuribdi, qorni o'lguday ochibdi. Biror yegulik narsa yo'q. Oltin-kumushni esa yeb bo'lmaydi. Oxiri ochlikdan sillasi qurib, holdan toyib, qumga yiqilib yotib qolibdi. O'lar holga kelganda oltin-kumushlarni oldiga qo'yib, qo'li bilan qumga o'yib "Arpa-bug'doy osh ekan, Oltin-kumush tosh ekan", deb yozibdi-da, olamdan o'tibdi [10:20].

Bundan ko'rinadiki, o'zbek va qoraqalpoq xalqlari boylik, xazinadan ko'ra bug'doyni, nonni azaldan hurmat qilishgan, hamma narsadan afzal, aziz va muqaddas deb bilishgan. Ota-bobolaridan qolib kelayotgan udum, an'anaga binoan, hatto nonni dasturxonga teskari qo'ymaydilar, nonning ustiga boshqa narsalarni qo'ymaydilar, nonning ustidan xatlab o'tmaydilar, agar non qo'ldan yerga tushib ketsa, darhol uni olib, uch marta o'pib, peshonalariga suradilar. Ular nonni aziz ne'mat deb bilib, ushog'ini ham uvol qilmaslikni farzandlariga yoshligidan uqtirishgan.

Xonadoniga mehmon kelsa dasturxonga, eng avvalo, non qo'yiladi. Bunday fazilatlar, ya'ni nonni e'zozlash, xor qilmaslik, isrof qilmaslik har ikki xalq madaniyatiga xosdir. Ikkala tilda ham nonning turlariga ko'ra bir necha nomlari mavjud bo'lib, ularning har xil hududlarda tayyorlanish usullari va nomlanishi jihatidan farqlanadi. Yana bir farqli tomoni o'zbek oilasida nonni dasturxonga keltirgach, kelgan mehmonga noqulaylik tug'dirmasligi uchun nonni bo'lib oldiga qo'yishadi. Qoraqalpoq xalqida bu odat birmuncha farqlanadi. Agar nonni bo'lib mehmon oldiga uzatishsa, xuddi berilgan non miqdorini o'lchab, cheklab bergandek tuyuladi, deb mulohaza yuritishadi. Shuning uchun butun holicha qo'yib, har kim o'z nasibasini o'zi olishlarini ma'qul ko'rishadi.

O'zbek va qoraqalpoq tillarida "non" leksikasi bilan bog'liq maqollar ko'p uchraydi. Masalan, *"Non pishguncha kulcha kuyadi"* [10:275] maqoli mavjud bo'lib, ushbu maqolning *"Katta to'qoch pishguncha kichik to'qoch kuyibdi"* [10:275] shakli ham keng qo'llanadi. O'zbek tilining izohli lug'atida "to'qoch" so'ziga quyidagicha izoh berilgan: To'qoch – shevaga oid so'z. 1. Katta bo'g'irsoq. 2. Kulcha non [8:521]. Tandirga yopilgan katta nonga issiq o'tguncha kulcha qizaradi, non qizarguncha kulcha kuyib ketadi. Ya'ni, barcha turkiy xalqlardagi kabi o'zbek oilalarida ham o'g'ilni uylantirish, qizni turmushga berish, ularni uyli-joyli qilishda ham odat, ham odob yuzasidan katta farzandlardan boshlashadi. Agarda kichik farzandlar kattalardan oldin shoshilsa, shunday hollarda mazkur maqolni istehzo tarzida qo'llashadi.

Bu maqollarning qoraqalpoq tilida “*Nan piskenshe gúlshe kúyedi, Ras sózge hámme basın iyedi*” [5:18] varianti mavjud. Ishlar yig'ilib qolgan paytda ularni to'g'ri yo'lga qo'yish, to'g'ri ketma-ketlikda bajarish kerak bo'ladi. Ana shunday holatda yuzaga kelgan ushbu maqol avval muhim va zarur ishni qilish kerak, degan ma'noni anglatadi, aks holda kech bo'lishi mumkin. Katta ishni qilguncha, kichigi kutib turadi. E'tibor berilsa, maqolning davomi ham bor. Rostgo'ylik, haqiqatning doim ustun kelishi haqida so'z boradi. Demak, bu maqollar ikki tilda ikki xil ma'no anglatadi.

Yuqorida izohlangan maqollarga fikr-mulohazalardan kelib chiqqan holda shuni xulosa qilish mumkinki, o'zbek va qoraqalpoq xalqlari uzoq yillardan buyon birga yashab kelayotgan bo'lsa ham bir jihatdan o'xshash, bir jihatdan farqli madaniyatlarni ko'rishimiz mumkin. Bu bir tarafdin yashash sharoiti bilan ham bog'liq. O'zbek va qoraqalpoq xalqlarining maqollarini lingvokulturologik tomondan tahlil etilishi ushbu xalqlarning madaniyatidagi o'xshash va farqli jihatlarini ko'rsatib beradi.

ADABIYOT:

Bobojonov F. Lingvokulturologiya fanidan o'quv uslubiy majmua. – Nukus: 2019.

Maslova V.A. Lingvokulturologiya. – Moskva: Akademiya, 2001.

Кадирова Х. Б., Мамедов Х. В. СОПОСТАВИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ИКС-ФЕМИЧЕСКОГО ХАРАКТЕРА АЗЕРБАЙДЖАНСКИХ, ТУРЕЦКИХ И УЗБЕКСКИХ ОГУБЛЁННЫХ И НЕОГУБЛЁННЫХ ПОСЛОВИЦ И ПОГОВОРОК // SAI. 2024. №Special Issue 28. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/sopostavitelnyy-analiz-iks-femicheskogo-haraktera-azerbaydzhanskih-turetskih-i-uzbekskih-ogublyonnyh-i-neogublyonnyh-poslovits-i>

Кадирова, Х. 2024. Методы перевода дисфемизмов в художественном переводе узбекского и русского языков. *Зарубежная лингвистика и лингводидактика*. 2, 2 (мар. 2024), 100–113. DOI:<https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol2-iss2-pp100-113>.

Qaraqalpaq folklori. – Nukus, 1978. 4-tom, 173 b.

Qaraqalpaq folklori – naqil-maqallar. – Toshkent, 2019.

Qaraqalpaq folklori – naqil-maqallar. Kitapxana.com <https://n.ziyouz.com/books/qaraqalpaq-kitapxanasii/folklor/Qaraqalpaq%20folklori.%20Naqil-maqallar.pdf>

Qaraqalpaq tiliniń túsindirme sózligi. Nókis, 1992. 4-tom

O'zbek tilining izohli lug'ati. Toshkent, 2023. VI jild, 700 b.

O'zbek tilining izohli lug'ati. Toshkent, 2023. V jild, 521

O'zbek xalq maqollari. Toshkent, 2013.

Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Hikmatnoma. Toshkent, 1990, 20-b.

MUNDARIJA:

1	Muhammedova S. Shirinova Y. Ko'p tillilik va ko'p madaniyatlik muhitida o'zbek tilini o'rgatish masalalariga doir.....	3
2	Kadirova X.B. O'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitishda mustaqil ta'limning ahamiyati.....	7
3	Iskandarova G.T. O'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'rganishda so'z ma'nolarini o'zlashtirish.....	15
4	Musulmanova N. Filologiya yo'nalishi rusiyzabon guruhlarida o'zbek adabiyoti fanini o'qitishda asar tahlili muammolari.....	21
5	Isayeva Sh. Adabiy o'qish darslarida ruhiyat masalalarining o'rganilishi..	25
6	Do'smuradova Y. Badiiy matnni tahlil qilish tamoyillari.....	31
7	Turakulova O.A. O'zbek tili mashg'ulotlarida adabiy o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishning amaliy jihatlari.....	35
8	Məmmədov X. Kadirova X. X(iks)-femik xarakterli özbək və azərbaycan atalar sözlərinin tipoloji xüsusiyyətləri.....	39
9	Elova D.Q. O'zbek tilining rasmiy axborot uslubini yaratishda nutq uslublarining ahamiyati.....	45
10	Abdulkhokimova O. O'zbek muloqot xulqining sotsiologik xususiyatlari.....	56
11	Xo'jayev N. O'zbek tilida murojaat shakllari va ularning gender xoslanishi.....	61
12	Aytniyazova N. O'zbek va qoraqalpoq tillarida oziq-ovqat mavzusidagi maqollarning lingvomadaniy xususiyatlari.....	66
13	Nasirdinova O. Lingvostatistika – tilshunoslikning zamonaviy va amaliy sohasi.....	70
14	Khidoyatova D.A. Views of eastern thinkers on interactive education and its principles.....	75
15	Davronov A.S. O'zbek tilini badiiy filmlar va badiiy adabiyotlar vositasida o'rgatish.....	79
16	Аликулова М. Анализ изучения языка и стиля произведений А.И.Куприна.....	82
17	Bazarova D.B. Ta'lim rus tilida olib boriladigan guruhlarda "o'zbek tilida so'z tarkibi" mavzusini o'rgatish tajribasidan.....	88
18	Yo'ldosheva Y.A. Grafologik tahlil qilish metodikasi.....	91
19	Beysenova A. Kadirova X. Soliq sohasiga oid normativ-huquqiy hujjatlaridagi lingvistik muammolar.....	96
20	Pardayeva M.Ch. Xorijliklarga o'zbek tilini maqsadli o'qitishda yuzaga keladigan muammolar va muqobil yechimlar.....	102
21	Shodmanov T.A. O'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitishda autentik materiallar uchun topshiriqlar tuzish metodlari.....	107
22	Abduqodirova N. Multilingualizm muhitida shakl va ma'no munosabatlarini o'qitishning lingvokulturologik jihatlari.....	112